

Kimyo bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari ma'lum bo'ldi

// 09.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-bo-yicha-nobel-mukofoti-laureatlari-ma-lum-bo-ldi>



Nobel fondi 9-oktabr kuni 2024-yil kimyo bo'yicha Nobel mukofoti sovrindorlarini e'lon qildi.

Xabarga ko'ra, 2024-yilda 3 ta mukofot ham o'ta muhim hayotiy element - oqsil moddasi izlanishlariga bag'ishlandi.

Devid Beyker - Vashington universiteti professori. Oqsillarning mutlaqo yangi turlarini yaratgani uchun;

Demis Xassabis - Buyuk Britaniyaning sun'iy intellekt bilan shug'ullanuvchi Google DeepMind kompaniyasi bosh direktori va Jon Jumper - ushbu kompaniyaning katta ilmiy xodimi - murakkab oqsil tuzilmalarini bashorat qilishda sun'iy intellekt modelini ishlab chiqishgani uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati